



MINGO'RIK SHAHAR YODGORLIGI HAQIDA

Pardayev Ahrorqul Hasanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti dotsenti, t.f.n.,

Arzuyev Xusan Urol o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy aholi orasida “Afrosiyob tepaligi” nomi bilan mashhur Mingo'rik shahar yodgorligi haqida so'z boradi. Mingo'rik shahar xarobasidan topilgan moddiy ashyolar uning umumso'g'd madaniyati asosida Sug'd, Farg'ona va O'rta Osiyoning boshqa joylari bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: Mingo'rik shahar yodgorligi, Afrosiyob tepaligi, Shohnoma eposi, Afrosiyob haqida, Choch madaniy o'lkasi, minoraqasr, Y.T.Smirnov, N.S.Likoshin, M.Y. Masson, umumso'g'd madaniyati.

Toshkent shahridagi qadimiy shahar xarobasi bo'lgan, I–XIII asrlarga oid arxeologik yodgorlikdir bu Mingo'rik (yoki Mingo'riktepa) hisoblanib, u mahalliy aholi orasida “Afrosiyob tepaligi” nomi bilan ham mashhur. Yodgorlik Toshkent temir yo'l vokzali yaqinida, Salor kanali sohilida joylashgan. Yodgorlikning nomi XIX asrda bu hududda katta o'rikzor bog'i bo'lganligi sababli “Mingo'rik” deb atalgan. Arab yozma manbalarida bu shahar “Madiant ash-Shosh” nomi bilan tilga olinsa, boshqa yozma manbalarda “Choch” xitoy yozma manbalarida “Dje-She” va “Shi” deb nomlangan[4].

Shahar harobasi minoraqasr (to'rtburchak arkka yondoshgan) va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Hozirgi shahar qurilishi munosabati bilan yodgorlikning madaniy qatlami qisman buzilib, faqat bir qismi



saqlanib qolgan. Mingo'rikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shahar hayotining uch asosiy bosqichini aniqlashga yordam berdi:

1. I–IV asrlar: Ichki turar joy kompleksini himoya qilgan uzun yo'lakli, qo'shqator qal'a devorlari mavjud bo'lgan.

2. V–VI asrlar: Shahar tez sur'atda rivojlanib, mustahkam ark va shahristonga aylangan. VI asr oxirida Chochning poytaxti bo'lgan.

3. VII–VIII asrlar: Arab xalifaligi istilosi arafasida shahar eng yuksak taraqqiyotga erishgan. VIII asr boshlarida arablar tomonidan vayron qilingan[1].

XIX asrning 70-80-yillarida Mingo'rik tepaligi asta-sekin buzilib, uning tuprog'idan quyilgan xom g'ishtlardan yangi shahar binolari qad rostlagan. O'sha vaqtlari Mingo'rik tepaligi tuprog'ini 30 yil davomida aravalab tashigan mo'ysafidlardan birining hikoyasiga qaraganda, shahar qurilishini pudratga olgan Toshkent boylari Mingo'rik tepaligini Chor hukumatining Turkistondagi ma'muriyatidan ijaraga olib, uni qurilishga ishlatganlar. O'sha davrlarda tuprog'i qazib tashilayotgan Mingo'rik tepasidan chiqqan ashyoviy topilmalar: pishiq g'isht, kanalizatsiya quvurlari, shisha va sopol idishlar, qadimgi chaqa va tangalar to'g'risida mahalliy matbuotda endigina Toshkentga ko'chib kelgan havaskor o'lkashunos, ilg'or rus ziyolilarining xabarlari tez-tez bosilib turgan[4].

Mingo'rikdagi tepalik toshkentliklar o'rtasida «Afrosiyob tepaligi» nomi bilan mashhur edi. Bu tepalikni shaharliklar Turon mamlakatining qadimgi afsonaviy shohi Afrosiyob nomi bilan bog'laydilar. Aytishlaricha, tepalik o'rnida qadimda Afrosiyobning «oshxona»si bo'lgan emish, uning taxtda o'tiradigan qarorgohi esa Chig'atoy yaqinida qadimgi Jarariq bo'yida joylashgan ikkinchi Afrosiyob tepaligida bo'lgan emish. Shuning uchun ham xalq bu ikkinchi tepalikni «Shohnishin», ya'ni «Shoh o'tirgan joy» deb atarmish, degan hikoya shaharliklar o'rtasida keng tarqalgan edi[3].



Avvalo shuni aytish kerakki, «Afrosiyob» tarixiy shaxs emas, u Turon mamlakatining afsonaviy shohlaridan biridir. Oʻrta asr yozma manbalari, ayniqsa, Firdavsiyning mashhur «Shohnoma» eposi tufayli Afrosiyob Sharqda, ayniqsa, Oʻrta Osiyoda shuhrat topgan. U Eron ahmoniylari tajovuziga qarshi muttasil kurash olib borgan jangovar qahramon hukmdor, Turonda koʻplab shahar va qishloqlar barpo etgan shoh sifatida tasvirlanadi. Darhaqiqat, bu afsonaviy podsho ismi qadimgi Turon diyorida ilk davlatlar barpo etib, dastlabki shaharlar bino qilgan hukmdorlar silsilasining umum ramziy nomidir. Shu boisdan boʻlsa kerak, koʻpincha qadimgi shahar xarobalarini Afrosiyob nomi bilan bogʻlab talqin etish xalq ogʻzaki adabiyotida keng oʻrin olgan.

Chunonchi, Samarqandda Siyob anhuri sohilidagi mashhur «Afrosiyob» shahri xarobasi ham, Toshkentda Salor va Jarariq boʻylarida joylashgan har ikki «Afrosiyob» tepaliklari ham afsonalarga asosan soʻnggi asrlarda paydo boʻlgan toponimlardir. Qadimdan xalqimiz sizot suvlar va buloqlardan hosil boʻlgan soy va anhorlarni «siyohob» yoki qisqartirib «siyob», yaʼni «qorasuv» deb yuritib kelgan. Bunday anhorlarning sohillari boʻylab joylashgan mavzelar «Afrosiyob» yoki «Siyob sohillari», yaʼni «Qorasuv boʻylari» demakdir[3]. Shunday ekan, Samarqandda Siyob soyi sohilidagi mashhur «Afrosiyob» shahar xarobasi ham, Toshkentning Salor va Jarariq boʻylarida joylashgan har ikkala Afrosiyob tepaliklari ham «Siyob yoki Qorasuv boʻyidagi joylar» degan maʼnoni anglatadi.

Arxeologik tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, Mingoʻrik shahar xarobasining ostki qatlamidan ochilgan obidalar milodning birinchi asrlariga taalluqli boʻlib, undagi dastlabki binolar hozirgi kundan rosa 19-20 asr burun qad koʻtargan.

Aftidan, milodning III-IV asrlarida Mingoʻrikdagi qadimgi qoʻrgʻon birmuncha kengayib, uning tashqi mudofaa devori taʼmir etilgan. Bu davrda loyiga somon qoʻshilgan yirik xom gʻisht va paxsadan yangi binolar qurilgan. Ochilgan xonalardan topilgan, chala yongan yogʻochlarga qaraganda, xonalarning tomi toʻsin



va ustunli bo'lib, sahni(poli) somonli loy bilan suvalgan. Mingo'rikda ilk o'rta asrlarga oid qasr binosining bir qismi yaxshi saqlangan. Bu yerdan bir necha xona ochib, tekshirildi: xom g'isht va paxsadan bino qilingan devorlar balandligi 2 metrgacha saqlanib qolgan. Xonalarda eni bir metr, balandligi 0,5 metr va usti somonli loy bilan suvalgan supalar bo'lib, ulardan birining supasi va sahni(poli)ga 25 ta xum qator terib qo'yilgan. Xumlarning birida kuyib ko'mirga aylangan mosh donlari saqlangan. Hatto kavlab ochilgan xonalardan birining devorlarida oq bo'yoq bilan hoshiya tortilib, ustiga qizil rang bilan islmiy naqsh berilgan devoriy rasmlarning qoldiqlari qayd etilgan. Bu devoriy rasmlar VI-VII asrlarga mansub bo'lib, yaxshi saqlanmaganligi sababli uning manzarasini aniqlab bo'lmadi[2].

Umuman o'rganilish tarixiga keladigan bo'lsak, Mingo'rikni dastlab 1896-yil E.T.Smirnov, N.S.Likoshin tomonidan, 1912-yilda esa Turkiston arxeologiya xavaskorlar to'garagi a'zolari tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Keyinchalik 1920-yillarda M.Y.Masson, 1968-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom qildirganlar[1].

VIII asr boshlarida yurtimizning Arab xalifaligi qo'shinlari tomonidan bosib olinishi oqibatida boshlangan talon-torojlik davrida Choch o'lkasi va tevarakatofidagi shahar-qishloqlar o't ichida qoladi. Bu voqealardan keyin Mingo'rikdagi vayron bo'lgan qadimgi Choch shahri necha o'n yillar davomida bo'shab, o'zini o'nglab ololmaydi. Bu yerda shahar keyinchalik ham tiklanmaydi[2].

Xulosa qilib aytganda, Mingo'rik - arxeologik yodgorlik, qadimiy shahar xarobasi qoldig'i I-XIII asrlarda faoliyatda bo'lib, mahalliy aholi o'rtasida u Afrosiyob tepasi nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Shahar yodgorligining me'moriy qurilish uslublari majmuasi, ichki bezaklarda hashamatli devoriy tasvir va naqshlardan foydalanish, uy-ro'zg'or asbob-uskunalari, idishlar Mingo'rikning umumso'g'd madaniyati asosida Sug'd, Farg'ona va O'rta Osiyoning boshqa joylari bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga shahar turmush tarzida ko'chmanchi qabilalarning ta'siri katta bo'lgan. Shahar



qurilishi kengayib borgan sari eski qal'a devorlari torlik qilib, uning xarobalari ustiga shahriston uylariga nisbatan salobatli qasr majmuasi - Choch hukmdorlarining saroyi qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Egamberdiyeva A. Arxeologiya. Toshkent. 2011. 115-b.
2. To'pchiyev U. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari Jizzax. 2024. 37-38-b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000. 167-168-b.
4. www.wikipedia.org. ineternet sayti